

## 2019 yil 1 dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot



## 2019-yil 1-dekabr holatiga yuridik shaxs bo'lgan korxonalar va tashkilotlar demografiyasi bo'yicha tahliliy ma'lumot


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

(Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi  
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi)

Mamlakatimizdagi kabi, viloyatimizda ham qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 5 263 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 265 taga ko'pdir.

Natijada, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 023 ta (18,1 %)ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 26 290 tani tashkil etgan.




## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yilning 1-dekabr holatiga 26 290 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 26,9 % savdo, 21,1 % sanoat, 7,5 % qurilish, 6,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,7 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,5 % axborot va aloqa hamda 26,0 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, %

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatdan o'tgan  
korxonalar va tashkilotlar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Umumiy soni, birlik		01.12.2019 yil	
	01.12.2018 yil	01.12.2019 yil	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %	Jamiga nisbatan, %
<b>Jami</b>	<b>22 267</b>	<b>26 290</b>	<b>118,1</b>	<b>100,0</b>
<i>shundan:</i>				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1646	1 803	109,5	6,8
Sanoat	4 413	5 538	125,4	21,1
Qurilish	1638	1 968	120,1	7,5
Savdo	5 390	7 075	131,3	26,9
Tashish va saqlash	807	987	122,3	3,7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	907	1 154	127,2	4,4
Axborot va aloqa	345	385	111,6	1,5
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	518	552	106,6	2,1
Boshqa turlari	6 603	6 828	103,4	26,0

Hududlar bo'yicha ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar sonining eng ko'pi Namangan shahri (9 606 ta), Chust (2 160 ta), Namangan (1 824 ta) va Uychi (1 655 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (1 075 ta), Norin (1 129 ta) hamda Yangiyo'rg'on (1 315 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 25 585 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 4 433 ta (20,9 %)ga o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 26,6 % savdo, 21,2 % sanoat, 7,5 % qurilish, 6,8 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 4,3 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 3,8 % tashish va saqlash, 2,1 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,5 % axborot va aloqa 26,2 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Namangan shahri (9 287 ta), Chust (2 089 ta), Namangan (1 792 ta), Uychi (1 628 ta), To'raqo'rg'on (1 555 ta) hamda Kosonsoy (1 545 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Aksincha, Mingbuloq (1 072 ta), Norin (1 122 ta) hamda Yangiqo'rg'on (1 267 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 5 263 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 1,8 martaga ko`pdir.

### 2015-2019 yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda


*(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)*



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Namangan shahri (1 589 ta), Chust (431 ta), Pop (405 ta), Uychi (364 ta) va Uchqo`rg`on (375 ta) tumanlari hissasiga to`g`ri keladi. Aksincha, Mingbuloq (264 ta), Yangiqo`rg`on (265 ta), Norin (283 ta) hamda Chortoq (305 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko`rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni, birlikda**


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'pi savdo (2 080 ta), sanoat (1 370 ta), qurilish (437 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (323 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (47 ta), axborot va aloqa (76 ta) hamda tashish va saqlash (197 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.



**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari  
kesimidagi soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



**Tijorat korxonalarini**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-dekabr holatiga 21 263 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar - 6 543 ta, oilaviy korxonalar - 495 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 13 687 ta, unitar korxonalar - 144 ta, aksiyadorlik jamiyatlari - 26 ta va boshqalar 368 tani tashkil etgan.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Hududlar kesimida oilalar va  
tadbirkorlik subyektlari soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Oilalar soni*)	Tadbirkorlik subyektlari soni	
		01.12.2018 yil	01.12.2019 yil
<b>Namangan viloyati</b>	<b>693 905</b>	<b>16 953</b>	<b>21 263</b>
Namangan shahri	160 552	6 924	8 082
Mingbuloq	29 014	617	820
Kosonsoy	47 285	978	1 270
Namangan	44 952	1 256	1 549
Norin	42 750	623	870
Pop	55 246	798	1 138
To'raqo'rg'on	56 156	1 029	1 276
Uychi	55 132	1 033	1 352
Uchqo'rg'on	42 544	778	1 113
Chortoq	44 815	828	1 074
Chust	59 120	1 360	1 752
Yangiqo'rg'on	56 339	729	967

*\*) 2019 yil 1-yanvar holatiga tumanlar (shaharlar) fuqarolarning o'zini o'ziboshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari ma'lumotlari asosida jamlangan.*

**Hududlar kesimida 1000 oilaga to'g'ri keladigan  
tadbirkorlik subyektari soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar


Ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 13 942 tani tashkil etib, ulardan 13 687 tasi yoki 98,2% faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 3 151 taga yoki 29,2 % ga oshganligin ko'rish mumkin.

### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

	01.12.2019 y.		2019 yil yanvar- noyabr
	Ro'yhatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Jami</b>	<b>13 942</b>	<b>13 687</b>	<b>3 669</b>
<i>shundan:</i>			
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1 102	1 087	257
Sanoat	3 719	3 661	937
Qurilish	1 327	1 305	367
Savdo	4 372	4 279	1 499
Tashish va saqlash	801	789	167
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	570	553	157
Axborot va aloqa	207	202	44
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	262	257	32
Boshqa turlari	1 582	1 554	209

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning eng ko'p jamidagi ulushi savdo 31,3 %, sanoat 26,7 %, qurilish 9,5 % va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7,9 % ga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish 1,9 %, axborot va aloqa 1,5 %, tashish va saqlash 5,8 % va boshqa faoliyat turlarida 11,4 % ga to'g'ri kelgan.

**Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning  
hududlar bo'yicha soni, birlikda**



**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

2019-yil 1-dekabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 21 149 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2018-yil 1-dekabr holatiga qaraganda 25,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya'ni 8 035 tasi (38,1 %) Namangan shahri, 1 740 tasi (8,2 %) Chust, 1 543 tasi (7,3 %) Namangan hamda 1 346 tasi (6,4 %) Uychi tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalar  
soni, birlikda**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	shundan:	
		Kichik korxonalar	Mikrofirmalar
<b>Namangan viloyati</b>	<b>21 149</b>	<b>19 880</b>	<b>1 269</b>
Namangan shahri	8 035	7 518	517
Mingbuloq	814	783	31
Kosonsoy	1 268	1 192	76
Namangan	1 543	1 441	102
Norin	865	818	47
Pop	1 126	1 066	60
To'raqo'rg'on	1 269	1 205	64
Uychi	1 346	1 255	91
Uchqo'rg'on	1 109	1 049	60
Chortoq	1 068	1 000	68
Chust	1 740	1 637	103
Yangiqo'rg'on	966	916	50

**Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
hududlar kesimida jamidagi ulushi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 21 149 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 6 775 tasi (32,0 %) - savdo, 5 400 tasi (25,5 %) - sanoat, 1 904 tasi (9,0 %) - qurilish, 1 721 tasi (8,1%) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 107 tasi (5,2 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 960 tasi (4,5 %) - tashish va saqlash, 443 tasi (2,1 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasi, 341 tasi (1,6 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek 2 498 tasi (12,0 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.




## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019 - yil yanvar-noyabr oylarida 5 055 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,0 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Namangan shahri (1 516 ta), Chust (418 ta), Pop (388 ta), Uchqo'rg'on (366 ta) va Uychi (350 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (256 ta) hamda Yangiyo'rg'on (252 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
kichik korxonalar va mikrofirmalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa, eng ko'pi savdoda (2079 ta), sanoatda (1 368 ta), qurilishda (437 ta) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (320 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (47 ta), axborot va aloqada (65 ta) hamda tashish va saqlashda (197 ta) tashkil etilgan.


## Oilaviy korxonalar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2019-yilning 1-dekabr holatiga 507 tani tashkil etib, ulardan 495 tasi yoki 97,6 % faoliyat ko'rsatadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda, davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 57,5 % ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar soni to'g'risida ma'lumot, birlikda

	01.12.2019 y.		2019 yil yanvar-noyabr
	Ro'yhatdan o'tgan	Faoliyat ko'rsatayotgan	Yangi tashkil etilgan
<b>Namangan viloyati</b>	<b>507</b>	<b>495</b>	<b>201</b>
Namangan shahri	201	198	57
Mingbuloq	5	4	3
Kosonsoy	35	34	10
Namangan	18	18	8
Norin	21	21	13
Pop	13	13	7
To'raqo'rg'on	69	68	48
Uychi	19	18	6
Uchqo'rg'on	40	38	20
Chortoq	17	17	3
Chust	34	34	9
Yangiqo'rg'on	35	32	17

**Oilaviy korxonalar soni, birlikda**



**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda**



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 46,9 % yoki 232 tasi sanoat, 17,4 % yoki 86 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 16,6 % yoki 82 tasi savdo, 8,3 % yoki 41 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,4 % yoki 7 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 5 tasi axborot va aloqa, 0,6 % yoki 3 ta qurilish sohasi, 0,4 % yoki 2 ta tashish va saqlash hamda 7,4 % yoki 37 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %**




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak, eng ko'pi sanoat hamda yashash va ovqatlanish xizmatlari, eng kami esa, tashish va saqlash hamda qurilish kabi faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan  
oilaviy korxonalar soni, birlikda**

	<b>Korxonalar soni</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>
<b>Namangan viloyati</b>	<b>201</b>	<b>100,0</b>
Namangan sh.	57	28,4
Mingbuloq	3	1,5
Kosonsoy	10	5,0
Namangan	8	4,0
Norin	13	6,5
Pop	7	3,5
To'raqo'rg'on	48	23,9
Uychi	6	3,0
Uchqo'rg'on	20	10,0
Chortoq	3	1,5
Chust	9	4,5
Yangiqo'rg'on	17	8,5

2019-yil yanvar-noyabr oylarida 201 ta oilaviy korxonalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan qaraganda 2,7 martaga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar Namangan shahri (57 ta), To'raqo'rg'on (48 ta), Uchqo'rg'on (20 ta), Yangiqo'rg'on (17 ta) va Norin tumanlari (13 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Mingbuloq (3 ta), Chortoq (3 ta) hamda Uychi (6 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

2019-yil yanvar-noyabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi,




Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, ularning 43,7 % yoki 88 tasi sanoat, 23,4 % yoki 47 tasi savdo, 19,4 % yoki 39 tasi yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 7,0 % yoki 14 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,0 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, 0,5 % dan yoki 1 tadan sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash, shuningdek, 4,5% yoki 9 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qurilish sohasi bo'yicha yangi oilaviy korxonalar tashkil etilmagan.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar

2019-yil 1-dekabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 215 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 84 taga yoki 64,1 %ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


2019-yil 1-dekabr holatiga xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning eng ko'pi Namangan shahri (74 ta), Kosonsoy (21 ta), To'raqo'rg'on, Chortoq, Pop va Uychi (17 tadan) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Nisbatan kamlari Mingbuloq (4 ta), Uchqo'rg'on (5 ta) hamda Namangan (6 ta) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining yillar kesimida soni, birlikda






Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 141 tasi qo'shma korxonalar, 74 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining ulushi, %



**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda**


	Jami	shundan:	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
<b>Namangan viloyati</b>	<b>215</b>	<b>141</b>	<b>74</b>
Namangan shahri	74	49	25
Mingbuloq	4	2	2
Kosonsoy	21	17	4
Namangan	6	5	1
Norin	11	7	4
Pop	17	13	4
To'raqo'rg'on	17	10	7
Uychi	17	14	3
Uchqo'rg'on	5	1	4
Chortoq	17	10	7
Chust	16	8	8
Yangiqo'rg'on	10	5	5

**Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar**

2019-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 85 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 49 taga ko'paygan.

Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining asosiy qismi Namangan shahri (23 ta yoki jamidagi ulushidan 27,0 %), To'raqo'rg'on (9 tadan yoki 10,6 %dan) Chortoq, Kosonsoy, Pop (8 tadan yoki 9,4%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Namangan (1 ta yoki 1,3 %), Mingbuloq (2 ta yoki 2,4 %) hamda Uchqo'rg'on (3 ta yoki 3,5 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

**2019-yilning yanvar-noyabr oylarida  
yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi  
korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, birlikda**




Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 11 ta, Turkiya Respublikasi - 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 20 ta, Qozog'iston Respublikasi - 3 ta va Koreya Respublikasi - 10 ta hamda boshqa davlatlar - 36 ta korxonalar yangi ro'yxatdan o'tgan.

Shuningdek, 2019-yil yanvar-noyabr oylarida Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoat (36 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (14 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kamlari esa, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (4 ta) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (3 ta) tashkil etilgan. Axborot va aloqa hamda tashish va saqlashda xorijiy kapital ishtirokida korxonalar tashkil etilmagan.

2019-yilning yanvar-noyabr yangi tashkil etilgan  
xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



**Namangan viloyati MDH davlatlarining kapitali davlatlarining  
kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxonalar soni, birlikda**

	Jami	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxonalar	Xorijiy korxonalar
Rossiya Federatsiyasi	41	27	14
Qozog'iston Respublikasi	6	5	1
Qirg'iziston Respublikasi	2	1	1
Tojikiston Respublikasi	6	5	1

Namangan viloyatida MDH davlatlarining kapitali ishtirokidagi korxonalarining asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalariga nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 19,1 %, Qozog'iston va Tojikiston Respublikalarida 2,8 dan %, Qirg'iziston 0,9 % ga to'g'ri kelmoqda.

**Namangan viloyati  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi  
Tel.:71-230-80-95(96)**